

MODERNISTIK PROZADA PSIXOANALITIK TALQIN: XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARI MISOLIDA

Samarqand davlat universiteti

1-bosqich magistranti

Marhabo Maxkamtosheva Abduraxmon qizi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida modernistik uslub va psixoanalitik talqin masalalari tahlil qilinadi. Adibning “Ibn Mug‘anniy” va “Jim o‘tirgan odam” hikoyalari misolida inson ruhiyati, ichki kechinmalar, vijdon va jamiyatdagi loqaydlik muammolari badiiy tahlil etiladi. Asarlardagi ramziylik, ichki monolog va psixologik tasvir vositalari orqali yozuvchining o‘ziga xos ijodiy uslubi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: modernizm, psixoanaliz, ruhiy tahlil, ichki monolog, ramziylik, vijdon, loqaydlik, badiiy obraz, Xurshid Do‘stmuhammad, hikoya

KIRISH

Bugungi kunda o‘zbek adabiyotida modernistik yo‘nalishning rivojlanishi, ayniqsa, inson ruhiyatini chuqur tahlil etishga qaratilgan asarlar sonining ortib borayotgani bilan xarakterlanadi. Bu jarayonda psixoanalitik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u insonning ichki dunyosi, ong va ong osti jarayonlari, ruhiy kechinmalarini badiiy talqin etishda samarali metod sifatida namoyon bo‘ladi.

Xurshid Do‘stmuhammad ijodi zamonaviy o‘zbek nasrida aynan shu jihatlari bilan ajralib turadi. Uning hikoyalarida inson ruhiyati, ichki iztiroblar, vijdon azobi, ijtimoiy muammolar bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Ayniqsa, yozuvchining “Ibn Mug‘anniy” va “Jim o‘tirgan odam” hikoyalarida psixoanalitik tasvir, ichki monolog, ramziy obrazlar orqali insonning ichki monolog yoritilgan.

Asosiy qism:

Xurshid Do'stmuhammad bugungi o'zbek badiiy prozasini yangi shakliy-uslubiy va tasviriy izlanishlari bilan boyitdi. U Dostoyevskiy, Lev Tolstoy, Kafka, Edgar Po ijodini chuqur o'rgandi va natijada bu talqin uning ijod laboratoriyasiga ko'chdi. Adibning o'zi shunday yozadi: "Har bir hikoya men uchun yangi ijodiy kayfiyat, voqelikni o'zgacha idrok etishga qilingan harakatdir..." [1]. Darhaqiqat, adibning hikoyalariga xos asosiy fazilat ham ularda muallif ijodiy uslubining rang-barangligidir.

Xurshid Do'stmuhammadning "Ibn Mug'anniy", "Otamning oshnasi", "Jim o'tirgan odam" kabi hikoyalari ruhiy tahlil kuchliligi, ijodiy uslubdagi rang-barangligi bilan ajralib turadi. "Ibn Mug'anniy" hikoyasida qor ostida qolgan odamning fojiaiy qismati aks etgan. Bosh qahramonning ismi ham bejizga Mug'anniy deb tanlanmaganligini asar voqealari rivoji davomida anglab yetamiz. Mug'anniy (arabcha: مغني) so'zi arab tilidan olingan bo'lib, quyidagi ma'nolarni anglatadi: kuychi, ashulachi; sozanda, cholg'uchi.

"Kuyi olamini sel qiladur..." asarda ushbu parcha bir necha bor takrorlangan va aynan otasidan qolgan eski sozini olish uchun qor bosgan hovlida bosh qahramon ayovsiz safarga otlanadi. Atigi 10–15 metrli masofa kishiga hayratlanarli darajada uzun bo'lib tuyuladi. Orada qahramon bir necha to'siqlar va mashaqqatlarga duch keladi: kakliklar qo'lini cho'qiydi, kalamushlar oyog'ini kemiradi, oxiri qarg'alar ko'zini cho'qib, halok qiladi. Bu yerda ramziy ma'noda san'at olamida kishi duch keladigan hasad, yolg'on, kibr singari illatlardan o'ta olsagina, asl san'atga yetisha oladi degan g'oya ilgari suriladi. Ibn Mug'anniy esa "musiqqa farzandi" edi, oilasidan voz kechdi, orzulari uchun harakat qildi. Bu yo'ldagi to'siqlarga chidam bilan sabr-bardosh etdi.

Yozuvchining "Jim o'tirgan odam" hikoyasi oddiy asar emas, ayni chog'da hali adabiyotimizda chuqur tadqiq etilmagan, inson ruhiyatining eng nozik nuqtalarini o'ziga xos yo'sinda ifodalovchi asardir. Hikoyada ilmiy institutda qirq yil xizmat etgan olim — Qurbonalining hayoti, xususan, uning pishiq xarakteri, ya'ni ko'rib, bilib turib, bilmaganlikka olish kabi jamiyatimizda kun kechirayotgan shaxslarga xos loqaydlik ijtimoiy salbiy illat sifatida badiiy muhokama etiladi.

Bosh qahramonimiz Qurbonali hayotining birinchi qismida gapga chechan, botir edi. Ammo otasi “tili” tufayli qamoqqa olingan, padari vasiyat etib ketganidek, “aqling bo‘lsa, jim yasha” tamoyiliga amal qildi. Shu bilan u tiliga qulf solib, oshna-og‘aynigarchilik ham qilmay qo‘ydi. Adib uning xarakterini tasvirlar ekan, odamovi, har kimdan, har narsadan shubha qiluvchi bir kishining qiyofasi xayolimizda gavdalanadi.

Ilyosviynikida bo‘lgan marakada o‘tirgan cho‘qqi soqol chol tufayli, o‘sha marakada bo‘lgan janjalni eshitib o‘tirgani sababli xayoli necha yuz ko‘chalarni kezib chiqadi. Uni har kuni “Kimsan?” savoli ta’qib qiladi. Atoqli adabiyotshunos Marhabo Qo‘chqorova ushbu xususda shunday fikr bildiradi: “Nazarimizda, ‘Kimsan?’ obrazi hikoyaning bosh qahramoni Qurbonaliga, uning butun boshli hayotiga, hayotiy ahvoliga, qirq yillik ilmiy faoliyatiga ‘Sen o‘zi kimsan? Bu dunyoda yashab, umring poyoniga yetganida o‘zingga savol berib ko‘r-chi, sen nimaga intilding? Nimaga erishding? Nimani yutqazding?’ degan bir qator savollarni o‘rtaga tashlayotgandek tuyuladi” [2].

Demak, “Kimsan?” aslida yurakning tubida miltillab turgan vijdon timsolidir. Necha-necha yolg‘onlarni ko‘rsa-da, jim bo‘lib, pusib yashaydigan, “dunyoni suv bossa ham, men tirik qolsam bo‘ldi” qabilida kun kechiruvchi kishilarning umumlashma obrazi sifatida Qurbonali yuzaga kelgan. Hikoyada ta’kidlanganidek, jim o‘tirgan odam — eng xavfli odamdir.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalari zamonaviy o‘zbek nasrida psixoanalitik talqin va modernistik ifoda uyg‘unligining yorqin namunasi hisoblanadi. Yozuvchi asarlarida inson ruhiyati, ichki kechinmalar, vijdon va ijtimoiy muammolar o‘ziga xos badiiy vositalar orqali yoritilgan.